

JAMIYATDA UMUMXALQ TILINING KO'LAMI SCALE OF NATION LANGUAGE IN SOCIETY

Qudratova Sayyora Ziyadulla qizi

*O'z FA O'zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti kichik ilmiy xodim
sayyoraqudratova18@gmail.com*

Tel: +998919039601

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumxalq tilining shakllanishi, keng ko'lamligi, ijtimoiy hayotdagi o'rni va vazifalari haqida so'z boradi. Shuningdek, umumxalq tilining adabiy til bilan munosabati, ular orasidagi farqlar bilan birgalikda uzviy bog'liqliklar borasida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Annotation. This article talks about the formation of the national language, its scope, role and functions in social life. Also, the relationship between the national language and the literary language, the differences between them, and the organic connections were discussed.

Kalit so'zlar: milliy til, tilning milliy varianti, adabiy til, sheva, lahja, ijtimoiy dialekt, etnosotsial vazifa, lisoniy harxillik.

Keywords: national language, national variant of the language, literary language, dialect, dialect, social dialect, ethnosal function, linguistic diversity.

Muayyan bir hududda yashovchi ma'lum bir millat vakillarining barchasi uchun tushunarli bo'lgan til umumxalq tili hisoblanadi. Ijtimoiy hayotda imkoniyat doirasi keng bo'lgan umumxalq tili kishilarning turmush tarzida ijtimoiy munosabatlarni ifodalashda foydalilanadi. Bu til ma'lum bir xalq vakillari uchun yagona va birlamchi aloqa vositasi vazifasini bajaradi. Manbalarda umumxalq tili (milliy til) o'ziga xos bir qancha ma'nolarda qo'llaniladi. Masalan, muayyan bir jamiyatdagi kam sonli etnik aholining tili yoki butun bir mamlakatda faol qo'llaniluvchi umumiyl til sifatida ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda, Hindistonda ushbu termin muayyan xalqning "hududiy tili" tushunchasini ifodalasa, ingliz sotsiolingvistikasida "davlat tili" ma'nosida ham qo'llangan.

Hozirgi kunda ko'plab manbalarda umumxalq tili va milliy til bir biriga sinonim shaklda qo'llanilmoqda. Ba'zi adabiyotlarda ular alohida tushunchalar ekanligi, bir biridan farqlovchi xususiyatlari mavjudligiga alohida urg'u berilgan fikrlar mavjud. Masalan: "...tilshunoslikda ularning biri o'rnda ikkinchisini qo'llash holatlari ko'p uchraydi. Biroq umumxalq tili til taraqqiyotining barcha bosqichini, ya'ni qadimgi davrdan hozirgacha bo'lgan davrni o'zida mujassamlashtiradi. Milliy til tushunchasi esa ana shu ko'p asrlik tarixning millat shakllangandan keyingi davrinigina

ifodalaydi”[1:28]. Bizningcha esa milliy til va umumxalq tili tushunchalari o‘zaro baravar tushunchalar bo‘lib, hozirgi davr umumxalq tilidir. Faqatgina milliy til deganimizda etnik o‘ziga xoslik, milliylik yaqqolroq aks etadi.

Xalq tarixi bilan bog‘liqligiga ko‘ra tilning 3 turi mavjud. Bular: qabila tili, elat tili, milliy til (umumxalq tili) dir. Qadimda jamiyatning ijtimoiy birligini qabila tashkil etgan. Har qanday milliy til qabilaviy til negizida shakllanadi va vaqtlar o‘tishi bilan hammaga tushunarli muloqot tiliga aylanib boradi.

Ba’zi adabiyotlarda tilning milliy varianti va milliy til tushunchalari bir xil ma’noda qo‘llaniladi. Ammo milliy til va tilning milliy varaianti tushunchalari bir-biriga yaqin termin hisoblansa-da, tilning milliy varianti deganda bir tilning turli xil hududlarda, turfa ijtimoiy sharoitlar natijasida bir biridan farqlanuvchi xususiyatlarga ega bo‘lgan mustaqil til variantlari tushuniladi. Masalan AQSh va Amerika mamlakatlaridagi til vaziyati. V.I.Terkulovning fikricha, tilning milliy variantining shakllanishi milliy til shakllanishidan oldingi bosqichdir va milliy til shakllanishining 3ta bosqichi mavjudligini keltirib o‘tadi: [2:117-120]

Birinchi bosqich – xorijiy til bosqichi. Etnik guruh boshqa davlat tili bo‘lishi mumkin bo‘lgan muayyan mavjud tildan millat ichida o‘zaro bir birini tushunishni ta’minlashda foydalanishi.

Ikkinci bosqich – “milliy variant bosqichi”. Etnik guruh o‘zi gapiradigan tilning milliy variantini belgilaydi. Bunda shevalar yetakchi omil hisoblanadi.

Uchinchi bosqich – “milliy til bosqichi”. Ba’zi hollarda tilning milliy varianti so‘zlovchilar tomonidan alohida til sifatida belgilanadi. Bu holat Lyuksembrug (dastlab nemis tili ishlatilgan, keyin nemis tilining lyuksemburgcha varianti, bizning davrimizda Lyuksemburg tiliga aylangan) va Xorvatiyada (dastlab serb-xorvat tili ishlatilgan, keyin xorvat varianti serb-xorvat tili va hozirgi kunda u xorvat tili deb) qayd etilgan.

Umumxalq tilining muataxassislar tomonidan qayta ishlangan, me’yorlashtirilgan, sayqallangan ko‘rinishi adabiy tilni yuzaga keltiradi. Umumxalq tili adabiy til darajasiga ko‘tarilishi uchun maxsus yozuv shakliga ega bo‘lishi lozim. Adabiy til va umumxalq tilining yana bir farqi shundaki, adabiy til dialektik bo‘linishga emas, balki til shakllarini bixillashtirishga asoslangan. Umumxalq tili esa dialektal birliklarni parchalanishiga moyil bo‘ladi. Masalan, o‘zbek umumxalq tili uchta asosiy qarluq-chigil-uyg‘ur, qipchoq va o‘g‘uz lahjalaridan tashkil topgan. Bu lahjalar o‘z navbatida dialektlarga, dialektlar esa shevalarga ajraladi. Bu holat o‘zbek umumxalq tilining dialektal parchalanishiga misol bo‘ladi.

Adabiy tilga ma’lum bir shaxs asos soladi va davr o‘tishi bilan o‘z me’yorlarini o‘zgartirib boradi. Umumxalq tili (milliy til)da esa aniq belgilangan qat’iy qonun-qoidalar mavjud bo‘lmay, uning yaratuvchisi ma’lum bir shaxs emas, balki xalqdir. Ammo “... milliy til yoki umumxalq tili bilan adabiy til o‘rtasida uzviy bog‘liqlik

bo‘lishi bilan bir qatorda ularning o‘zaro aloqasi va bir-biriga munosabati, bir-biriga ta’siri doimiy to‘xtovsiz jarayon sifatida davom etadi”. [3:11]

Umumxalq tili til mavjudligining alohida ko‘rinishi bo‘lib, bir necha tining yashash shakllarini o‘z ichiga oladi. Bular: adabiy til, so‘zlashuv tili, hududiy va sotsial dialektlar, vulgarizm va varvarizmlardir. Umumxalq tili yuqori va quyi bosqichlardan iborat. Yuqori bosqich adabiy tilni ichiga olsa, quyi bosqich sheva, lahja, dialekt, so‘zlashuv tili, ijtimoiy dialektlarni o‘z ichiga oladi. Umumxalq tili adabiy tilni o‘z ichiga olganligi sababli ham yozma va og‘zaki variantlarga ega. Ba’zi bir manbalarda sotsial dialektlar umumxalq tiliga xos emas degan fikrlar ham mavjud. Bu xususda Z.Xolmonova quyidagi fikrlarni keltiradi: “adabiy til umumxalq tili va milliy tilning oliy kommunikativ (aloqa) shakli bo‘lsa, sheva, lahja, oddiy so‘zlashuv va boshqa til ko‘rinishlari uning quyi shakli hisoblanadi. Ayni paytda paytda ular adabiy tilning doimiy rivojini ta’minlovchi muhim ichki omil bo‘lib xizmat qiladi. Ammo sotsial jargonlar va argolar bundan mustasno bo‘lib, ular umumxalq tiliga xos bo‘lmagan, tor doiradagi muloqot shakllaridir”. [1:29]

Darhaqiqat, sotsial dialektlar umumxalq leksikadan ijtimoiy xoslanganligi, ko‘pchilikka tushunarli bo‘lmasligi, tor doiradagi muloqot vositasidan iborat so‘z va iboralardan tashkil topganligi bilan ajralib turadi. Ammo umumxalq tili tilning yashash shakllarining barcha ko‘rinishlarini o‘z ichiga oladi.

Har qanday milliy til etnosotsial vazifaga ega bo‘ladi. Ushbu vazifa muayyan tilning muayyan jamiyatdagi etnolisoniy jarayonlar bilan bog‘liq funksiyalari bo‘lib, bu tilning etnik o‘z-o‘zini anglashga xizmat qilishi, etnomadaniyatni shakllantirishi kabilarni qamrab oladi [4:100]. Umumxalq tili til egalariga tarixiy va madaniy an’analarni avloddan avlodga yetkazish, saqlab qolish imkoniyatini ham beradi.

Milliy til ijtimoiy xoslanish jihatdan turli shakllarga ega. Masalan, asosan harbiy faoliyat uchun xoslangan shakli harbiy til, ilm-fan sohasida qo‘llanuvchi ko‘rinishi fan tili va noadabiy leksikasi bilan adabiy tildan farqlanib turuvchi shakli ko‘cha tili va h.k.lar kabi bir qancha ko‘rinishga ega.

Shuningdek, ma’lum bir millat bir necha milliy tilga ega bo‘lishi yoki bir milliy til bir necha mamlakatlarda amal qilishi mumkin. Masalan, Amerika, Avstraliya va AQSh kabi davlatlari ingliz milliy tilining turli variantlaridan foydalanishsa, Shvedsariyada nemis, fransuz, italyan va retoroman tillari kabi bir necha tillar milliy til vazifasini bajaradi. Ko‘p millatli bo‘lgan O‘zbekiston hududida ham qozoq, qoraqolpoq, qirg‘iz, tojik va turkman tillari milliy til sifatida qo‘llanadi. Bu kabi bir necha milliy tilning bir mamlakat doirasida qo‘llanishi lisoniy har xillikni yuzaga keltiradi.

Xulosa qilib aytganda, umumxalq (milliy) til xalq qadriyatlarini o‘zida saqlagan va bugungi kunda ham zamon bilan hamnafas shakllanib borayotgan tildir. Umumxalq

tili jamiyatning barcha qatlamlariga tegishli bo‘lgan til shakllarini o‘z ichiga olishi bilan keng qamrovlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Z.Xolmonova. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2020.
2. В. И. Теркулов. Региолект или национальный вариант: к постановке проблемы. (Филология и культура. - Казань, 2012. - № 2(28).
3. X.Doniyorov, B.Yo‘ldoshev. Adabiy til va badiiy stil. – Toshkent, 1988.
4. Y.Odilov. Sotsiolingvistika terminlarining izohli lug‘ati. –Toshkent, 2024.

